FONOLOGIYA BO‘LIMI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

Abdullayeva Soliha Elyorjon qizi
Qo‘qon davlat universiteti talabasi
Ilmiy rahbar:
Nasirov Muslimjon Maxsutali o‘g‘li
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada fonologiya va uning mohiyati, fonema tushunchasi, nazariyasi haqida batafsil yoritilgan va tilshunoslikning muhim tarmog‘i bo‘lgan fonologiyaning predmeti, asosiy tushunchalari va uning fonetika fanidan farqli jihatlari tizimli tahlil qilingan. Tadqiqotda fonema va allofon munosabati, minimal juftliklar hamda fonologik oppozitsiyalar nazariyasi tilning vazifaviy tabiati nuqtai nazaridan yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Fonologiya, fonema, oppozitsiya, fonologik oppozitsiya, segmental, supersegmental, differensial, integral.

Abstract. This article provides a detailed overview of phonology, its essence, the concept of the phoneme, and its theoretical framework, offering a systematic analysis of the subject matter, core concepts, and distinctions from phonetics as an essential branch of linguistics. Within the study, the relationship between phonemes and allophones, minimal pairs, and the theory of phonological oppositions are highlighted from the perspective of the functional nature of language.

Keywords: Phonology, phoneme, allophone, opposition, phonological opposition, phonetics, segmental, supersegmental, differential, integral.

Zamonaviy tilshunoslikda tilni tizim va struktura sifatida o‘rganish, uning sathlararo munosabatlarini yoritish ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda. Har qanday tilning mukammal qurilishi uning tovush tizimidan boshlanadi. Til tizimining poydevori hisoblangan tovush sathini shunchaki fizik-akustik hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy-vazifaviy mohiyatga ega bo‘lgan lisoniy birliklar majmuyi sifatida tadqiq etish bevosita fonologiya fanning zimmasiga

tushadi.Fonologiya mustaqil fan tarmog‘i sifatida o‘tgan asrning birinchi yarmida Praga lingvistik to‘garagi vakillari, xususan, N.Trubetskoy va R.Yakobson ishlarida shakllandi. O‘zbek tilshunosligida fonologiya masalalari A.G‘ulomov, G‘.Karimov, S.Ibrohimov, M.Mirtojiyev va A.Abduazizov kabi olimlarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Shunga qaramay, segmentar va supersegmentar birliklarning o‘zaro munosabati, fonemalarning differensial va integral belgilari tizimi hamon mukammal tasnifga muhtoj masalalardan hisoblanadi.

Fonologiya tilshunoslikning bir bo‘limi bo‘lib, u tilning tovush materiyasi taraqqiyotini va shu materiyaning fonologik sistemaga uyushish qonuniyatlarini hamda tildagi vazifalarini tadqiq qiladi. Fonologiyaning o‘ziga xos jihati shundaki, u o‘z obyektini semiologik aspektda (semantik darajadagi birliklarni farqlovchi belgilar tizimi sifatida) o‘rganadi,uning ilmiy-nazariy umumlashmalari dialektik fikrlashning asosiy qonunlari va dialektika kategoriyalariga tayanadi.Tilshunoslikda fonologiya ikki turga – *segmental fonologiya* va *supersegmental fonologiyaga* ajratiladi. **Segmental fonologiya** *tilning segment fonemalari bilan shug‘ullanadi,shunga ko‘ra u fonemika (yoki fonematika) deb ham ataladi.*

I z o h: fonemalar so‘z tarkibida birin-ketin joylashadi, o‘zaro zanjirsimon ulanib keladi, ayni shu xususiyat fonemalarning segment birliklar ekanligini belgilaydi. Masalan, t+ e+ r+ a+ k > terak, b +a+ h+ o+ r > bahor kabi.

Supersegmental fonologiya tilning supersegment birliklari - sillabema,aksentema intonema va ularning prosodik elementlari masalalari bilan shug‘ullanadi, shunga ko‘ra u ***prosodiya*** (yoki **prosodika**) deb ham yuritiladi.

I z o h: supersegment birliklar til va nutqda ustama hodisa sifatida ishtirok etadi. Masalan, *aksentema* (so‘z urg‘usi, sintagma urg‘usi, ayiruv urg‘usi) yoki *intonema* (ohang, uning turlari, prosodik elementlari) shu xususiyatga ega: *yangĭ* (sifat: – *yangi xabar*‖) – *yángi* (ravish: – *yàngi kelib ketdi*‖) kabi. Bu ikki so‘zning ma’nolarini farqlashda so‘z urg‘usi ustama hodisa (supersegment fonema) sifatida ishtirok etgan. Intonema, uning prosodik elementlari (ton balandligi, cho‘ziqligi, kuchi, temp, tembr va boshqalar) esa gapning ifoda maqsadiga yoki emotsionallikka

ko‘ra turlarini faqlashda ustama hodisa (supersegment fonema yoki supersegment morfema) sifatida qatnashadi.

Fonema nazariyalarining yuzaga kelish davri. Tilshunoslik fanining keyingi taraqqiyoti shuni ko‘rsatdiki, faqat tovush bilan harf emas, balki tovushning fizik tabiati bilan uning til mexanizmidagi roli ham doimo bir-biriga mos bo‘lavermas ekan. Bu masala I.A.Boduen de Kurtenening 1870-yilda yozilgan «XIV asrgacha bo‘lgan qadimgi polyak tili haqida» («О древнепольском языке до XIV столетия») nomli magistrlik dissertatsiyasida o‘z ifodasini topadi: unda fonetikaning ikkita vazifasi borligi alohida ta’kidlanadi: *1-vazifa* - tovushning fizik tabiatini o‘rganish.Bu vazifa fonetikaning akustik va fiziologik aspektlarini tashkil qiladi; *2-vazifa* tovushlarning til mexanizmidagi rolini, xalqning sezishi, his etishida tovushlarning ahamiyatini o‘rganish.Bunda tilning eng kichik (minimal) birligi haqidagi tushunchaga asos solinadi. Keyinroq bu birlik I.A.Boduen de Kurtene va uning shogirdi N.Krushevskiy tomonidan *fonema* deb nomlanadi.Shundan boshlab, fanda harf bilan tovushnigina emas, balki tovush (fon) bilan fonemani ham qat’iy farqlash zarurati paydo bo‘ladi. Fonema so‘zlar yoki morfemalarni tarkib toptiruvchi va ularning tovush qobig‘ini farqlash orqali ma’nolarini tafovutlash vazifasini bajaradigan eng kichik segment birlikdir.Masalan, *bur* va *bo‘r* (so‘zlarni tarkib toptiruvchi *segment* birliklar – **b,u,r** va **b,o‘,r**), “*-man”* va *“-san‖(mofemalarni tarkib toptiruvchi* segment birliklar: **m,a,n** va **s,a,n)** kabi.

Fonemalarning differensial (farqlanadigan) va integral (farqlanmaydigan)belgilari: *Fonemalarning differensial belgilari* ularni bir-biridan faqlash uchun xizmat qiladi. Masalan, – k‖ undoshi o‘zining jarangsizligi bilan jarangli – g‖dan ajralib turadi, demak, – k‖ning jarangsizligi va – g‖ning esa jarangliligi bu ikki fonemaning *differensial (farqlanadigan) belgilari* sanaladi. Differensial belgilar fonemalarning fonologik xususiyatga ega bo‘lishini ta’minlaydi – so‘zlarning fonetik qobig‘ini va ma’nolarini farqlash uchun xizmat qilad: *kul* va *gul* so‘zlarining ma’nolari ayni shu ikki fonemaning (– k‖ va – g‖larning) differensial belgilari – birining jarangsiz,ikkinchisining esa jarangli

ekanligi tufayli farqlanmoqda. Fonemalarning integral belgilari ularning o‘zaro farqlanmaydigan alomatlaridir. Masalan, yuqorida keltirilgan “k” va “g” undoshlarining har ikkalasi portlovchi, har ikkalasi sayoz til orqa fonemalardir. Demak, bu ikki fonema artikulatsiya usuli va artikulatsiya o‘rniga ko‘ra farqlanmaydi. Shunga ko‘ra,integral belgilar fonologik norelevant yoki semiologik norelevant belgilar hisoblanadi.Fonologik oppozitsiyalar. Fonologik oppozitsiya ikki fonemaning bitta (ba’zan bir necha) farqlanish belgisi asosida o‘zaro zidlanishidir.Shuning uchun «oppozitsiya» tushunchasi o‘zbek tilshunosligida «zidlanish» deb ham yuritiladi. Masalan, “d” va “t” undoshlarini olsak , ular “d” jarangli va “t” jarangsiz bo‘lib, “jarqngli - jarangsizlik” farqlanish belgisi asosida bir oppozitsiyaga birlashadi : d- t kabi.Bu ikki fonemaning boshqa belgilari farqlanmaydi. Prof. A. Abduazizovning ta’kidlashicha, hozirgi o‘zbek adabiy tili konsonantizmi tarkibida quyidagi birlik oppozitsiyalar bor:

1. Talaffuzda ishtirok etuvchi asosiy nutq a’zosi va tovushning hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra:

a) labial-til oldi (dental, alveolar) undoshlar oppozitsiyalari: **p-t, b-d** (portlovchilar), **m-n** (burun sonantlari), **f-s, v-z, f-sh, v-l** (sirg‘aluvchilar), **v-l, v-r**

(labial sirg‘aluvchi – til oldi sonant. Bunda **v, l, r** fonemalari sonorlar sifatida qaralgan, aks holda ular ikkitalik oppozitsiya tashkil etishi mumkin);

b) labial-til o‘rta farqlanish elementlari bo‘yicha faqat ikkita birlik oppozitsiyasi mavjud: f-y, v-y;

v) labial-til orqa undoshlari oppozitsiyalari: p-k, b-g (portlovchilar), f-x, v-g‘ (sirg‘aluvchilar);

g) labial-bo‘g‘iz undoshlari oppozitsiyalari: **f-h, v-h.** Bunda **“h”** ning jarangli *yoki jarangsiz ekanligi e’tiborga olinmagan, chunki bu xususiyat eksperimental jihatdan aniqlanmagan...*

d) til oldi-til orqa undoshlari oppozitsiyalari: **t-k, t-q, d-g** (portlovchilar), **s-x, z-g‘** *(sirg‘aluvchilar), n-ng (burun sonantlari). Bunda* ***ng*** *faqat so‘z oxirida*

kelganda sonantlik elementi bo‘lib, so‘z o‘rtasida kelganda, bo‘g‘in chegarasi uning elementini ikkiga bo‘lib, **n-g,** ya’ni ikki fonema birikmasiga aylantirishi nazarga olinadi);

e) til oldi-bo‘g‘iz undoshlari oppozitsiyalari: **s-h, z-h, sh-h, j-h** (sirg‘aluvchilar), **ch-h, dj-h** (til oldi affrikata va bo‘g‘iz sirg‘aluvchisi). Bunda **ch-h** va **dj-h** zidlanishlari – ikkilik oppozitsiyalar bo‘ladi‖, chunki ularda – til oldi-bo‘g‘iz undoshi‖ belgisidan tashqari, ikkinchi differensial belgi ham bor: **ch** (qorishiq portlovchi) **–h**(sirg‘aluvchi), **dj** (qorishiq portlovchi)- **h** (sirg_aluvchi) kabi.

2. Artikulatsiya usuli va to‘siqning qanday hosil bo‘lishiga ko‘ra:

a) portlovchi-sirg‘aluvchi undoshlar oppozitsiyalari: **p-f, b-v** (labial undoshlar), ***t-s, d-z, t-sh, d-j*** *(til oldi undoshlari),* ***k-x, g-g„, q-x*** *(til orqa undoshlari),* ***k-x, g-h*** *(til orqa va bo‘giz undoshlari);*

b) portlovchi–affrikatalar oppozitsiyalari: **t-ch, d-dj** (til oldi undoshlari);

v) sirg‘aluvchi-affrikatalar oppozitsiyalari: **sh-ch, j-dj** (til oldi undoshlari);

g) portlovchi-burun sonanti oppozitsiyalari: **b-m** (labial undoshlar), **d-n (til** oldi

undoshlari), **g-ng** (til orqa undoshlari);

d) sirg‘aluvchi-sonantlar oppozitsiyalari: **z-l, j-r;**

e) shovqinli sonant-burun sonanti oppozitsiyalari: **v-m, l-n, r-n;**

j) yon sonant-titroq sonant oppozitsiyasi: **l-r** (yakkalangan oppozitsiya).

3. Jarangsizlik-jaranglilik belgilariga ko‘ra: (p-b), (t-d), (s-z), (f-v), (k-g),**(sh-j), (ch-dj), (x-g‘).**

Xulosa qilib aytganda, fonologiya tilshunoslikning alohida tarmog’i sifatida tovushlarning shunchaki hosil bo‘lishini emas, balki ularning til tizimidagi ijtimoiy va ma’no farqlash vazifalarini tadqiq etadi. Maqolada ko‘rib chiqilganidek, fonema tushunchasi tilning moddiy asosi va ma’no ifodalash imkoniyatlarini bog’lab turuvchi bosh ko‘rsatkichdir. Fonologik qonuniyatlarni chuqur anglash tilning ichki

mexanizmlarini to‘g’ri tushunishga va nutq madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduazizov A.A. – O‘zbek tilining fonologiyasi va morfonologiyasi. Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

2. Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solihxo‘jayeva S. – O‘zbek tilining fonologiyasi va morfonologiyasi. Toshkent, 2004.

3. Jamolxonov H. – Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: Talqin, 2005.

4. Mengliyev B.R. – Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Fonetika-fonologiya. Grafika. Imlo. Qarshi, 2004.